



АКТУАР МОЛИЯ ВА БУХГАЛТЕРИЯ ХИСОБИ ИЛМИЙ ЖУРНАЛИ

Vol. 4 Issue 01 | pp. 322-328 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

OLIY O'QUV YURTIDAN KEYINGI TA'LIM TIZIMIDA TO'LANADIGAN STIPENDIYALAR



Norov Asror Egamberdiyevich
*Innovatsion rivojlanish agentligi direktori maslahatchisi, i.f.d. (DSc),
E-mail: norovasror1@gmail.com*

Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich
*Kadrlar malakasini oshirish va statistik tadqiqotlar instituti mustaqil izlanuvchisi
E-mail: fshshohruh@gmail.com*

Annotatsiya: Mamlakatimizda oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lif tizimida stipendiyalarini takomillashtirish aholining barcha qatlamlari uchun sifatli tadqiqot qilish imkoniyatini ta'minlashda muhim o'rinn tutadi va bu inson kapitalining rivojlanishiga bevosita daxldor hisoblanadi. Stipendiyalar miqdorini oshirish iqtidorli tadqiqotchilarni jalg etish, ularni ilm-fan tizimida saqlab qolish, shuningdek, yuqori ilmiy natijalarga erishishga undaydi. Stipendiya to'lovlarini yaxshilashning asosiy jihatlaridan biri ularni inflyatsiya va yashash narxining o'zgarishiga moslashtirish bo'lib bu tadqiqotchilarga iqtisodiy tashvishlarni kamaytirish bilan birga ilmiy ishga e'tibor qaratish imkonini beradi. Bundan tashqari, stipendiyalar miqdorini oshirish tadqiqotchilar va ularning oilalari uchun moliyaviy yukni kamaytirishga yordam beradi, bu ayniqsa kam ta'minlangan oilalar yoshlari uchun muhimdir.

Kalit so'zlar: Ilmiy darajali kadrlar, tadqiqotchilar, doktorantura, tahlil, rivojlanish, tadqiqot, tayanch doktorantura, stipendiya, iqtisodiy, moliyaviy, oila, imkoniyat, yashash, sharoit, xarajat, bir bosqichli ta'lif tizimi, ikki bosqichli ta'lif tizimi.

SCHOLARSHIPS FUNDED IN THE POST-HIGHER EDUCATION SYSTEM

Norov Asror Egamberdiyevich
*Director's Advisor of the Innovation Development Agency (DSc),
E-mail: norovasror1@gmail.com*

Fazliddinov Shohruh Shamsiddinovich
*Independent Researcher at the Institute for Human Resource Development and Statistical Research
E-mail: fshshohruh@gmail.com*

Annotation: Ensuring the possibility of conducting high-quality research for all levels of scholarship recipients in the postgraduate education system in our country holds a significant place and directly contributes to the development of human capital. Increasing the amount of scholarships attracts talented researchers, retains them in the academic system, and facilitates the achievement of high scientific results. One of the main aspects of improving scholarship payments is to align them with changes in inflation and the cost of living, which allows researchers to focus on economic concerns alongside scientific work. Furthermore, increasing the amount of scholarships helps reduce the financial burden for researchers and their families, which is particularly important for underprivileged families with young members.

Keywords: Highly qualified professionals, researchers, doctoral studies, analysis, development, research, postgraduate education, scholarship, economic, financial, family, opportunity, living, conditions, expenses, single-stage education system, two-stage education system.

СТИПЕНДИИ ФИНАНСИРУЕМЫЕ В СИСТЕМЕ ОБРАЗОВАНИЯ ПОСЛЕ ВЫСШЕГО УЧЕБНОГО ЗАВЕДЕНИЯ

Норов Асрор Эгамбердиевич

Директор-консультант Инновационного агентства развития, Доктор экономических наук,
Электронная почта: norovasror1@gmail.com

Фазлидинов Шохрух Шамсиддинович

Независимый исследователь Института повышения квалификации кадров
Электронная почта: fshshohruh@gmail.com

Аннотация: Обеспечение возможности проведения качественных исследований для всех уровней обучения после высшей школы играет важную роль в развитии человеческого капитала и стимулирует повышение стипендий. Увеличение размера стипендий привлекает талантливых исследователей, сохраняет их в системе науки и образования, а также способствует достижению высоких научных результатов. Одним из основных аспектов улучшения стипендиальных выплат является их адаптация к изменению инфляции и жизненных затрат, что позволяет сократить экономические затраты и обратить внимание на научную работу. Кроме того, увеличение размера стипендий помогает снизить финансовую нагрузку на исследователей и их семьи, что особенно важно для малообеспеченных семей с детьми.

Ключевые слова: Научные кадры, исследователи, аспирантура, анализ, развитие, исследование, докторантур, стипендия, экономический, финансовый, семья, возможность, затраты, условия, образование, одноуровневая система обучения, двухуровневая система обучения.

2017-2021 yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni tasdiqlagan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreli dagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-oktabrdagi "Doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag'batlantirish to'g'risida" 839-tonli qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi "Respublika oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3655-tonli qarori qabul qilindi.

Muhtaram Prezidentimiz tomonlaridan ushbu qarorlarning qabul qilinishi ortidan akademik tadqiqotchilarga, ayniqsa, oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim sohasiga e'tibor kuchayishi tufayli doktorantlarga beriladigan stipendiyalar miqdori sezilarli darajada oshdi. Bu hodisa ilmiy jamoatchilikni rivojlantirish va yosh olimlarni ilmiy faoliyatini davom ettirishga undashda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim yo'nalihsida doktorantlar uchun stipendiyalarning ko'payishi ularning ilmiy izlanishlarining turli bilim sohalariga qo'shgan hissasini e'tirof etishdan dalolat beradi. Bundan tashqari, doktorantura stipendiyalari miqdorini oshirish ilmiy ishlarning obro'sini

	Ilmiy daraja turi	2013-yil	2014-yil	2014-yil	2014-yil	2015-yil	2016-yil	2017-yil
Bir bosqichli ta'lim tizimi								

oshirishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida ilmiy izlanishlar bilan shug'ullanish istagida bo'lган yoshlar sonining ko'payishiga olib kelishi mumkin. Bu ilm-fan va texnikaning kelajakdagi rivojlanishini ta'minlash, turli bilim sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.

2013-yildan hozirgi kunga qadar ya'ni oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limning 2013-2017 yillar oralig'idagi bir bosqichli tizimida tahsil olgan doktorantlarning stipendiyalari har yili ilmiy va rahbar xodimlarning bazaviy lavozim maoshlari miqdorlarini o'zgartirish to'g'risidagi qarori chiqarilishi orqali doimiy ravishda 2021-yilga qadar yilada kamida ikki marta o'zgartirilib kelingan (1-jadval).

1-jadval

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim tizimida tahsil olayotganlarga to'lanadigan stipendiya miqdori¹ (2013-2017 yillar kesimida)

¹

O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi lex.uz ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

	Doktorantura	867 253	1 047 208	1 172 873	1 290 160	1 419 176	1 419 176	1 419 176
--	---------------------	---------	-----------	-----------	-----------	-----------	-----------	-----------

Olib borilgan tahlillar natijasida budjet mablag'lari hisobiga fundamental, amaliy tadqiqotlar va innovatsion ishlarning ilmiy-texnika dasturlarini amalga oshirishda qatnashuvchi ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy va rahbar xodimlarning bazaviy lavozim maoshlari 2013-yildan 2017-yilgacha ya'ni oliy ta'limdan keyingi ta'limning bir bosqichli ta'lim tizimi davrida yuqorida ko'rib turganimizdek doktorantlarga to'langan stipendiya miqdori aniqlandi.


Oliy ta'limdan keyingi ta'limning bir bosqichli ta'lim tizimi davrida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 18-avgustdagagi "Ilmiy xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 233сон qarori bilan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoki Vazirlar Mahkamasining qarorlarida loyihalar rahbarlari lavozimlari yoki shunga o'xshash lavozimlar nazarda tutilgan hollarda ushbu lavozimlarga bo'limlar mudirlarining bazaviy lavozim maoshlari belgilanishi hamda ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini amalga oshirishga xarajatlar qiymati kalkulyatsiyasini shakllantirishda ilmiy va rahbar xodimlarning mehnatiga haq to'lash fondi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-son qaroriga muvofiq 2009-yil 1-yanvardan boshlab bazaviy lavozim maoshlarining tasdiqlanadigan miqdorlari asosida hisoblab chiqilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining eng kam oylik ish haqi miqdorini oshirish to'g'risidagi Farmonlari qabul qilinishi munosabati bilan bazaviy lavozim maoshlari o'zgargan taqdirda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlanantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi (hozirgi Innovatsion rivojlanish agentligi), Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining (hozirgi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vaziri) ilmiy va rahbar xodimlarning bazaviy lavozim maoshlari miqdorlarini o'zgartirish to'g'risidagi qarori chiqarilishi orqali doimiy ravishda o'zgartirilib kelingan. Bu esa ortiqcha ovoragarchilik va vaqt talab qilgan.²

Ko'p o'tmay bir bosqichli ta'lim tizimi o'zini oqlamaganligi tufayli yana qaytib ikki bosqichli ta'lim tizimiga o'tildi. Buning natijasida Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 18-avgustdagagi 233-son qaroriga o'zgartirish kiritish orqali davlat budjeti mablag'lari hisobiga davlat ilmiy dasturlarini amalga oshirishda qatnashuvchi ilmiy va rahbar xodimlarning bazaviy lavozim maoshlari miqdorlari 2021-yil 1-fevraldan boshlab mehnatga haq to'lashning eng kam miqdoriga nisbatan koeffitsiyentlarda hisoblash tizimi aniq belgilab qo'yildi. Natijada esa bir qancha vaqt va inson resurslari tejalishiga hamda qulayliklarga erishildi. Bundan oldingi tizim kabi har doim mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori o'zgarishi bilan unga moslab qaytadan hisoblab yana qaror chiqarish tizimi o'z o'zidan bekor bo'ldi.

Hozirgi kunda bitta izlanuvchining o'rtacha stipendiya miqdori 5,6 mln so'mni tashkil etib, 2017-yilga nisbatan (2017-yilda 1,4 mln so'm) 4 baravarga oshirilgan.

² O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 18-avgustdagagi "Ilmiy xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 233-son qarori

Ma'lumot uchun: Xorijiy davlatlarda bitta izlanuvchining o'rtacha stipendiya miqdori 500 AQSh dollaridan 2000 AQSh dollar (Xitoyda 500 AQSh dollari, Niderlandiyada 1200 AQSh dollari, Germaniyada 1500 AQSh dollari, Finlyandiyada 2000 AQSh dollari)ni tashkil etadi (1-rasm).



1-rasm. 2018-2023 yillarda bir izlanuvchining oylik stipendiya miqdori

Yuqoridaagi diagrammada ko'rib turganimizdek yurtimizda so'ngi yillarda olib borilgan ilm-fan sohasidagi islohotlarning natijasi o'larоq ilmiy tadqiqot olib boruvchilarining stipendiya miqdori oshirildi.

Stipendiya miqdorining oshirilishi bilan kun sayin ilmiy izlanuvchilarning soni ham oshib bormoqda, sababi oldingi stipendiyaga tadqiqot qila turib oila boqish imkoniyati mavjud emas edi, hozirgi kunda esa buning imkoniyati va yetarlicha shart-sharoitlari mavjud.

Tadqiqotlarimiz jarayonida guvohi bo'ldikki, stipendiyalar doktorantlar va ularning ilmiy va tadqiqot muvaffaqiyatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Stipensiya olish tadqiqotchilarning motivatsiyasini rag'batlantirishi, o'quv faoliyatini yaxshilashi va kasbiy mahoratini oshirishiga sabab bo'lishi aniqlandi.

Davlat tomonidan doktorantlarga stipendiya ajratish bo'yicha tadqiqotlarimizdan xulosalarimiz quyidagicha:

- doktorantlarga moliyaviy yordam berish orqali ularni to'liq bo'lmagan ishlarda vaqt sarflash zaruratidan xalos qiladi va ularga o'qish va ilmiy ishlariga e'tibor qaratish imkonini beradi va ularning tadqiqot sifatini yaxshilaydi. Chunki ular adabiyotlarni ko'rib chiqish, tajribalar o'tkazish va ma'lumotlarni tahlil qilish uchun ko'proq vaqt sarflashadi;

- doktorantlar uchun muhim rag'bat bo'ladi chunki o'zlarining sa'y-harakatlari va yutuqlarining tan olinishi deb bilishadi. Bu tadqiqotchilarning motivatsiya darajasini oshirishi, ularni ilmiy faoliyatda yanada tirishqoqlik va intiluvchanlikka undaydi.

Shunday qilib, stipendiyalar doktorantlar hayotida muhim o'rин tutadi, ularning ta'lim va ilmiy yutuqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois talabalarni stipendiyalar orqali

qo'llab-quvvatlash ilm-fan sohasidagi siyosatning muhim jihatni bo'lib, ilmiy soha rivojiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009-yil 29-dekabrdagi PQ-1024-son qarori;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreli dagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son qarori;
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-apreldagi "Respublika oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari xodimlarining mehnatiga haq to'lash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-3655-sonli qarori;
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 18-avgustdagagi "Ilmiy xodimlar mehnatini yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 233-son qarori;
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-oktabrdagi "Doktorantlarning ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanishlari uchun moddiy shart-sharoitlar yaratish va mehnat faoliyatini yanada rag'batlantirish to'g'risida" 839-sonli qarori;
6. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Innovatsion rivojlanish agentligi ma'lumotlari;
7. <https://innovation.gov.uz/>;
8. <https://lex.uz>.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution- 4.0 International License (CC - BY 4.0)

